



O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA XIZR TEONIMI VA HATAMI TOY ANTROPOTEONIMINING QO'LLANISHI

Hamid Xo'shmurodovich Bozorov

O'qituvchi. Termiz davlat universiteti. Termiz, O'zbekiston.

hamidbozorov65@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7491109>

ARTICLE INFO

Received: 19th December 2022

Accepted: 28th December 2022

Online: 29th December 2022

KEY WORDS

Mentalitet, lingvomadaniyat, madaniyat tili, o'zbek xalq ertaklari, Xizr, Hotami toy, pretsedent birlik, milliy madaniyat.

Har bir xalqning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi madaniy birliklar mavjud. Bu birliklar ichida inson omilini birinchi o'ringa chiqaruvchi hamda o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib beruvchi tushunchalar asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jamiyatdagi rivojlanish insoniyatning g'oyalari-yu qarashlariga asoslanadi. Bu qarashlar asrlar davomida shakllanib boradi, qaysidir jihatlari kam miqdorda bo'lsa ham xalq hayotidan chiqib ketadi, ko'pchiliklari esa, aksincha, o'sha xalqning o'ziga xos milliyli va an'nasi, qadriyatlarini ifodalovchi muhim bir tushuncha sifatida xalq hayotidan o'rin egallaydi. Bu tushunchalar asrlar o'tsa-da o'sha xalqning ongida yashaydi va kelgusi avlodlarga ham yetkazib beriladi. Bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biri ham xalq madaniyatining lisoniy birliklar asosida inson ongida yashashi va undan kerakli vaziyatda foydalanishni tafsif qilishga e'tibor qaratmoqda. XX asrning oxirlariga kelib

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek xalq ertaklarida qo'llangan Xizr va Hotami toy obrazlarining o'ziga xos jihatlari, xalqning lisoniy ongida saqlanishi, lingvomadaniy tomonlari tahlil qilingan. Maqolaning dolzarbligini o'zbek xalqi ongida saqlanib kelayotgan Xizr va Hotami toy obrazlari orqali ifodalanadigan etalonlar tahliliga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli.

antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishi insoniyat madaniyatining til orqali namoyon bo'lishini dalillar asosida tahlil eta boshladi. Bu borada ko'plab ilmiy ishlar, tadqiqot materiallari yuzaga keldi. Jumladan, lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishi til va madaniyatning o'zaro bog'liq jihatlariga, inson madaniyatini tilda aks etishini tahliliga e'tibor qarata boshladi. Xalq madaniyatining tilda yashashiga va u orqali madaniy qadriyatlarni ifodalash lingvomadaniyatshunoslikning alohida fan sifatida vujudga kelishiga asos bo'ldi va albatta, fan oldida turgan asosiy maqsad va vazifalarini belgilab oldi. Bundan tashqari, har bir fanda bo'lgani kabi o'rganilishi lozim bo'lgan obyektlarni ham aniq tanlab oldi, ya'ni «Lingvokulturologiyaning obyekti - madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilish¹», deb belgilandi.

¹Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B-26.



Shu ma'noda lingvomadaniyatshunoslik milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarning lisoniy shaxsda yashashi va keyingi avlodlarga milliy madaniyatning o'ziga xos tomonlarini yetib kelishida tilning hissasini inobatga olish kerakligini ko'rsatadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy belgilarini matnlarda ifoda etilishini jahon tilshunosligidagi tahlili va o'rganilishi haqida olim D.Xudayberganova quyidagicha fikr bildiradi: «Matnning kognitiv-semantik xususiyatlari, olamning lisoniy manzarasini yaratishda muayyan etnosning o'rne, tilning shaxs mentaliteti, tafakkuri, ruhiyati bilan aloqador jihatlari, badiiy matnda shaxs ruhiyati aks etishi, shuningdek, lingvomadaniy birliklar, presedent matnlar va nomlar, kognitiv metaforalar yuzasidan dunyo mamlakatlarining ilmiy markazlari, universitetlarida, jumladan, Kopengagen University (Daniya), Groningen University, Utrext University (Niderlandiya), Sankt-Peterburg universiteti, Moskva davlat universiteti, Moskva lingvistika universiteti (Rossiya), Vitebsk davlat universiteti (Belarus), Qozoq Milliy universiteti (Qozog'iston)da keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda»². Bu borada o'zbek tilshunosligida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda va o'zbek xalqiga xos milliy-madaniy merosning lingvistik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslik fanida lingvistik birliklarning va har bir xalq madaniyatining o'zgachaligini jahonga ko'rsatadigan madaniy qadriyatlar ham mavjud. Lingvomadaniyatshunoslikning

o'rganish obyektlari qatorida milliy qadriyatlarning o'rni ham katta. Bu haqda rus tilshunosi V.A. Maslova shunday deydi: «Madaniy qadriyatlar universal va individual, asosiy va qo'shimcha ma'nolarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan tizimdir. Ular tilda, aniqrog'i, so'z va sintaktik birliklar ma'nolarida, frazeologik birliklarda, paremiologik fond va pretsedent matnlarda o'z aksini topadi (Y.N.Karaulov bo'yicha). Masalan, barcha madaniyatlarda ochko'zlik, qo'rqqoqlik, kattalarni hurmat qilmaslik, dangasalik va boshqalar kabi insoniy illatlar qoralanadi, lekin har bir madaniyatda bu illatlar har xil belgilar kombinatsiyasiga ega»³.

Maslovaning yuqoridagi fikriga ko'ra, madaniy qadriyatlar keng qamrovli va ajralmas, shuningdek, ma'no nozikliklarini ifodalashdagi ifoda birliklarining lingvistik jihatdan o'ziga xosligiga e'tibor qaratish lozimligi anglashiladi. Bu jarayonda ifoda birliklari sifatida har bir xalqning o'tmishi bilan bog'liq hamda o'zida milliy-madaniy qadriyatlarni saqlovchi frazeologik birliklar, paremiologik fond va pretsedent matnlarning o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, inson alohida olingan narsa, shaxs, hodisa kabilarni ularning o'ziga xos belgilari asosida esda olib qoladi. Narsa miqdor jihatdan ko'plikni tashkil etsa, eslab qolishning asosiy yo'li narsalarni tasnif qilish, guruhlariga ajratish, ularga xos o'xshash va noo'xshash belgilarni aniqlash, shu yo'l bilan ajratilgan guruhlarini yana ichki guruhlariga, ularni esa keng knchik birliklarga - tashkil etuvchilarga ajratishdir⁴.

²Xudayberganova D. С. [Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Фил. фанлари док. дис. – Т.: 2015. – Б. 5.](#)

³ В.А. Маслова. Лингвокультуроология. Учебное пособие. Москва .2001.Б 49.

⁴ Ҳ. Неъматов, О. Бозоров. тил ва нутқ. Тошкент: Ўқитувчи. 1993. – Б. 13.



H.Ne'matov va O.Bozorovlarning fikrini aynan milliy qadriyatlarga qiyoslash ham mumkin. Xalq hayotida mavjud tushuncha (narsa-buyun, shaxs, voqea-hodisa va h.k.)larni eng asosiy belgilari asosida ongda saqlab qolish har bir shaxs ong faoliyatida kuzatiladi. Lingvomadaniy birliklar ham inson ongida muhim xususiyatlari bilan saqlanib qoladi. Natijada verbal va noverbal holatlar bilan birgalikda urf-odat, milliy qadriyat, xalqning madaniyatini ifodalovchi konseptlar bilan o'sha qadriyatlarni amalga oshirish yo'llari leksema orqali ongda yashashini ta'minlaydi. Insonlar hayoti davomida o'z xalqi madaniyatiga tegishli bo'lgan (ba'zan boshqa xalqqa oid bo'lishi ham mumkin) birliklarni ijtimoiy hayotda bevosita qo'llab, keyingi avlodlar uchun ham «tashuvchi» vazifasini o'taydi. Bu jarayonda til shakllari muhim vazifa bajaradi. Bu lingvomadaniyatshunoslikda lingvomadaniy paradigma bilan chambarchas bog'liq hodisa hisoblanadi. Maslova lingvomadaniy paradigma haqida fikr bildirar ekan quyidagilarni bayon etadi: Lingvomadaniy paradigma - etnik, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy va boshqalarni aks ettiruvchi til shakllari to'plami, dunyoqarashning deterministik kategoriyalari. Lingvomadaniy paradigma tushunchalarni, kategorik so'zlarni, madaniyatning pretsedent nomlarini va boshqalarni birlashtiradi.

Lingvomadaniylikni ifoda xususiyatlari ichida madaniyat tili degan tushuncha ham mavjud bo'lib, mentalitetni ko'rsatishda imkoniyat keng bo'ladi. Madaniyat tili ishora borligi, aniqrog'i, belgilar va ularning munosabatlari tizimi bo'lib, ular orqali qiymat-semantik shakllarning muvofiqlashuvi o'rnatiladi va mavjud yoki yangi paydo bo'lgan tasvirlar, obrazlar,

tushunchalar va boshqa semantik tuzilmalar tashkil etiladi. Boshqa etnik madaniyatlarga nisbatan uning tili etnik guruh madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini obyektivlashtiradigan va uning boshqa etnik guruhlar madaniyati bilan o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqotning barcha belgisi usullari to'plami sifatida tushuniladi⁵.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat tili qadimdan mavjud bo'lgan tasvirlar, obrazlar, tushunchalarni anglatishini inobatga olsak, lingvomadaniyatning asosiy obyektlaridan hisoblangan pretsedent birliklar madaniyat, urf-odat va qadriyatlar bilan bog'liq tushunchalarni anglashda muhim ahamiyatga ega.

Pretsedent birliklar haqida gap ketar ekan, Maslova shunday izohni beradi: «Madaniy unversallik, bir tomondan, moddiy olamga, ikkinchi tomondan, etnosning milliy-madaniy, axloqiy muammolariga qaratilgan. Bunday ikki tomonlamalik ularning semantik imkoniyatlariga, matndagi yetakchi g'oyalar, millat va davr timsollarining ramziy ifodasiga aylana olishiga xizmat qiladi. Bular, go'yo matnning madaniy mayoqlari. Matn tilshunoslik va madaniyatshunoslikning haqiqiy tutashuvidir, chunki u tilga mansub va uning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi, shu bilan birga, matn madaniyatning mavjudligi shaklidir. Lingvokulturologiya esa tilni faqat madaniy qadriyatlarning mujassamlash tizimi sifatida qaraydi. Lingvokulturologiyada madaniyatning muhim belgilarini saqlagan matnlar, pretsedent nomlari va asosiy tushunchalarini o'rganish muhim o'rin tutadi. Maslova: «Pretsedent nomlar - bu

⁵ В.А. Маслова. Лингвокультуроология. Учебное пособие. Москва. 2001. – Б. 49.



xalqning ko'pchilik vakillariga ma'lum bo'lgan holatlar bilan mashhur matnlar bilan bog'liq individual nomlar⁶», - deb ta'kidlaydi.

«Presedent» atamasining o'zbek, rus, ingliz va nemis tillaridagi izohli, ensiklopedik, etimologik lug'atlarda turlicha izoh va ta'riflari mavjud. Xususan, presedent nom yoki ism «Lingvistik ensiklopedik lug'at»da quyidagicha izohlanadi: presedent (lot. praecedens – oldinda yuruvchi, oldingi) – oldin, o'tmishda sodir bo'lib, shu ko'rinishdagi keyingi birliklarga namuna yoki oqlovchi dalil bo'lib xizmat qiluvchi birlik. Boshqacha aytadigan bo'lsak, oldin mavjud bo'lgan barchaga tanish bo'lgan nomning o'zga bir shaxs e'ki narsaga nisbatan qo'llanilishi tushuniladi⁷.

Rus tilshunosligidagi presedent birliklar tadqiq etilgan ishlarda Injil matnlari, miflar, xalq qo'shiqlari, ertaklar, latifalar, maqol, turg'un o'xshatishlar, frazeologizm hamda mashhur shaxslar nomi presedent birlik sifatida qayd etiladi. Shunga ko'ra bunday birliklarning presedent nomlar, presedent jumlar, presedent matnlar kabi turlari ajratiladi⁸.

Y.N. Karaulov pretsedent matnlar «u yoki bu shaxs uchun kognitiv va hissiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan, g'ayritabiiy xususiyatga ega, ya'ni bu shaxsning keng doirasiga, shu jumladan, uning o'tmishdoshlari va zamondoshlariga yaxshi ma'lum bo'lgan va nihoyat, shaxs murojaatida yangilangan, ma'lum bir lingvistik shaxsning nutqida

qayta-qayta qo'llanadigan matndir. Pretsedent matnlar inson ongida «tayyor intellektual va hissiy bloklar» dir⁹.

Maslova va Karaulovning fikrlaridan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelsak bo'ladi: pretsident birliklarning xalq hayotini, madaniy belgilarini ifoda etuvchi muhim lingvomadaniy obyektidir.

Pretsedent matnlar bo'yicha Karaulov yana quyidagi masalaga diqqat qaratadi: «Ma'lumki, tilshunoslikda muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi»¹⁰. Y.A. Naximova presedent fenomenlarni xalqning milliy ongida saqlanuvchi tizim sifatida baholaydi¹¹.

Xalq hayotida muhim iz qoldirgan shaxslar yoki xalq vakillarining lisoniy xotirasida o'rin egallab, nutqida ko'p qo'llanadigan matnlar, jumlar, obrazlar (asosan, namuna sifatida ko'rsatish uchun ijobiy obrazlar, ba'zan yomon sifatlarning «oqibatlarini»ni tahlillashga qaratilgan salbiy obrazlar) xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'p uchraydi.

Xalq o'tmishidan hikoya qiluvchi xalq og'zaki ijodi namunalarida, ayniqsa, xalq ertaklarida pretsedent birliklar bilan bog'liq matnlarni ko'p kuzatishimiz mumkin. Har bir xalq ertaklarida pretsident birliklar bilan bog'liq qator

⁶ В.А. Маслова. Лингвокультурология. Учебное пособие. Москва, 2001. 53 б.

⁷Havola quyidagi manbadan olindi: Ахмаджонов Н. Бадиий услубда кўлланган прецедент номларнинг лингвопоэтик тадқиқи. [Фил.фан.бўйича фалс.док. \(PhD\)дисс. Фарғона, 2022 йил. – 154 б.](#)

⁸Havola quyidagi manbadan olindi: Худайберганова Д. С. [Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Фил. фанлари док. дис. – Т.: 2015. Б -129](#)

⁹Орлова, Н.В. Лингвокультурология: учебное пособие / Н. В. Омск: Издво Ом. гос. унта, 2014. – С 116.

¹⁰Havola quyidagi manbadan olindi: Xudoyberganova D. Til. Tafakkur. Madaniyat / Matnning pretsedent shakli. Toshkent: Nodirabegim, 2020. - Б – 114.

¹¹Havola quyidagi manbadan olindi: Худайберганова Д.С. [Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентриқ талқини. Фил. фанлари док. дис. – Т.: 2015. Б -129](#)



nomlarni uchratish mumkin. Jumladan, qadimiy o'zbek xalqi og'zaki ijod an'analari ega bo'lgan o'zbek xalqi og'zaki ijodida ham pretsident birliklarini ifodalovchi nomlarni yoki xalq ongidan muqim o'rin egallagan matnlar talaygina. O'zbek xalq ertaklarida shunday matnlar borki, undagi obraz, tasvir yoki nomlar asrlar o'tsa-da, xalqimizga xos madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'zida saqlab, keying avlodlar uchun ko'prik vazifasini o'tab kelmoqda.

«Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek adabiyotida Hotam nomini qo'llash «saxiy» ramzi sifatida an'anaga aylangan. Matnda Hotam antroponimi «saxiy odam» etaloni sifatida yuzaga keladi»¹². Hotam antroponimi xalqimiz orasida «Hotami Toy» nomi ostida ham yuritiladi. Bu nomning berilishini quyidagicha izohlashimiz mumkin: Hotamtoy (a. toylik (toy qabilasidan bo'lgan)Hotam) Saxiy, saxovatli, oliyjanob (Toy shahridan yashab o'tgan, o'zining saxiyligi bilan mashhur bo'lgan Hotam nomli afsonaviy arabning ismi – laqabidan)¹³. Bu nom ko'plab xalqlar hayotida muhim o'rin egallab, badiiy asarlar uchun prototip vazifasini o'tab kelmoqda.

Ushbu nom pretsedent nom sifatida o'zbek xalq ertaklarida ham keng qo'llanib, ko'pchilik hollarda ertak qahramonining sifatini namoyon qilish uchun obrazga nisbatlab ko'rsatiladi. Bu esa sharq xalqlari ongida «saxiy»likni o'zida mujassamlashtirgan yoki «ochiqqo'l»

¹²Yunusova J. O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi. Shavkat rahmon she'riyatida poetonimlar badiiyati/O'zbek tili va adabiyotini jahon "o'zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ'ib etish: natija va miqyosida targ'ib etish: natija va vazifalar. Xalqaro ilmiy-ma'rifiy anjuman materiallari. 2021. 171-bet.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Т.: 5 том 2008. – 553 б.

frazemasini ifodalovchi shaxs tushunchasini lisoniy shaxs ongida gavdalantiradi. Jumladan;

«Bir bor ekan, bir yo'q ekan, niyati buzuq, hammani o'zidan bezor qilgan bir o'g'ri bor ekan. U o'g'irlikdan topgan pulini karta o'ynab yutqazar, hamma vaqt yolg'onni do'ndirib, kishilarni aldab ketar ekan. Bir vaqt uning ishi yurishmay qolibdi. Qarasa, hamma o'zini undan chetga oladigan bo'lib qolibdi. Bir kuni odamlardan shu yurtda Xotami Toyga o'xshagan bir kishi borligini va uning kim nima so'rab borsa, surishtirmay so'ragan narsasini berishini eshitib, shuning uyiga boribdi. Borsa, oq soqol bir nuroniy odam ko'rpachada o'tirgan emish. Salom berib kiribdi. Saxiy odam ham o'rnidan turib kutib olibdi. Yaxshilab qornini to'yg'azibdi-da, keyin: «Xizmat», debdi»¹⁴.

Yuqoridagi mikromatnda ertak qahramoniga «Hotam» sifatining berilishi va xalq orasida ushbu personajning «Hotami Toyga» o'xshatilishi orqali shaxsning boshqa sifatlarini berishga hojat qolmaganligini ifodalaydi. Sababi birgina «Hotami Toy» antroponimining o'zi bu kishida yaxshi sifatlar mavjudligini ko'rsatib beradi, Hotami Toy pretsedent nom sifatida o'zbek xalqi ongida saxiylik sifatini ifodalashi natijasida «Hotamitoylik, hotamlik» kabi tushunchalar asrlar devomida yashab kelmoqda. Quyidagi misolda Hotami Toyning saxiyligi yanada ta'sirchan ifodalanib, yuqoridagi misoldan farqli ravishda, nisbatlash (o'xshatish) orqali emas, balki Hotami Toyning o'zi bilan bog'liq holda «saxiy odamning

¹⁴Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Ойжамол. Ҳаётний эртақлар. Иккинчи китоб. Яхши ният — ярим давлат. Тошкент. – Ғ. Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти. 1966 й. - 3 бет.



xislatlari qanday bo'lishi kerak?» - degan savolga javob beradi:

Ertalab nonushtadan keyin Muqbil:

– Qani, Hotamning uyini menga ko'rsatib qo'ying, – debdi. Uy egasi:

– Hotam men bo'laman. Podshoh aytgan otni bisotimda boshqa narsa bo'lmaganidan, kecha so'yib, sizga ovqat qildim. Siz oshiq yigit ekansiz, siz uchun bitta bosh emas, mingtasi ham qurbon bo'lsin, – deb Muqbil oldiga tiz cho'kib, boshini tutibdi. Muqbil Hotamning mardligini ko'rib, yig'lab yuboribdi.

So'ngra bunday debdi:

– Yo'q! Sizning boshingizni kesadigan qo'lim qirqilsin! Podshoh qizini bermasa, bermay qo'ya qolsin. Men sizdek saxiyning qurboni bo'lay!¹⁵

Yuqoridagi ertak misolida Hotam obraziga xos bo'lgan «saxiylik» (hotamtoylik yoki hotamlilik) etalonlari badiiy tarzda, ekspressivlikni oshirishga xizmat qilgan va saxiylik konseptining eng oliy bosqichini, ya'ni himmat uchun jonini berishga tayyorligini ifodalab bergan.

Hotam pretident birligi boshqa xalqlarda ham saxiylik va ochiqqo'llikning ifodasi sifatida bayon etiladi. Arab xalq ertaklari turkumida «Hotami Toyi» ertagi mavjud bo'lib, ertak mazmunida vafot etgan Hotamning vafotidan keyin ham «hotamligi» davom etishi bayon etiladi:

Yo'lovchi bir tuyaga minib, ikkinchisini yetaklab olgan emish. «Kim bo'lasan?» — deb so'rashibdi undan. «Hotami Toyining o'g'li — Adiy bo'laman. Himyariylar amiri Zul-Kuro qaysingiz?» — debdi yo'lovchi. Unga amir Zul-Kuroni ko'rsatishgan ekan u: «Tuyangizning evaziga mana bu tuyani minib oling, otam tuyangizni siz uchun so'yibdi», — debdi. «Bu ishlardan qanday

voqif bo'lding?» — deb so'rabdi podsho. «Bu kecha tushimda; otam kelib: «Ey dilbandim, himyariylar podshosi Zul-Kuro mendan mehmon qilishni so'radi, uni ziyofat qilgani hech narsam yo'qligi sababli o'z tuyasi bilan mehmon qildim. Bir tuya olib, uning ketidan yetib bor, u shu tuyani minib olsin», dedilar». Zul-Kuro tuyani olibdi. Hotami Toyining ham tirikligidagi, ham o'lganidan keyingi saxiyligidan taajjubda qolibdi¹⁶.

Bu misol orqali Hotami Toy yoki Hotam obrazining sharq xalqlari uchun birdik «saxiy» yoki «saxovatli» konseptini tashuvchi president nom sifatida ifodalanishini kuzatishimiz mumkin.

Pretsedent nomlar ichida Xizr teonimi alohida o'rinni egallaydi. Xizr (arabcha «yashillanmoq», «yashil tusga kirmoq»). Islom rivoyatlarida zikr etilgan, hayot bulog'idan «obi hayot» ichib, umri boqiy bo'lgan taqvodor shaxs; og'ir ahvolda qolgan chol, suvori yoki yo'lovchi ko'rinishida uchrab, ularning mushkullini oson qiladi¹⁷. Xizr teonimining o'ziga xos xususiyatlari F.Nurmanovning «Xizr obrazining genezisi va uning folklordagi talqini» nomli nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha bayon etadi. F. Nurmanov Xizr teonimining, dastlab, mifologik qarashlar natijasida paydo bo'lganini ta'kidlab, quyidagilarni bayon etadi: «O'zbek folklorining mifologiyaga bevosita daxldor personajlaridan bir guruhi epik qahramonning homiysi, g'ayritabiiy ko'makchisi va yordamchisi vazifasida kelishi bilan boshqa tipdagi mifik obrazlardan farqlanib turadi. Ana shunday homiy personajlardan biri Xizr bo'lib, xalq

¹⁵ O'zbek xalq ertaklari. Muqbil toshotar. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.64.

¹⁶ Osiyo xalq ertaklari. Arab xalq ertaklari turkumi. Hotami Toyi. – Toshkent: Meriyus, 2009. – 126-b.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 4 том. 2007. – Б. 97.



orasida bu mifologik obrazning o'ziga xos sifatlari, ko'rinishi, vazifalari haqida xilma xil tasavvur va ishonchlar keng tarqalgan»¹⁸.

Xizr teonimi o'zbek xalqi ma'naviy olamida islomiy e'tiqod bilan bog'liq, sehrgalik yoki afsun yordamida ijobiy xislatlarini namoyon qilsa-da, maishiy hayot bilan bog'liq jarayonlarda ko'proq namoyon bo'ladi. O'zbek xalq ertaklarida Xizr antroponimi fantastik ertak bilan hayotiy-maishiy ertak voqealarining ifodasida oraliqda turadigan pretsedent nom desak, xato hisoblanmaydi. Buni taniqli folklorshunos olim H.Zarifov quyidagicha izohlaydi: «...o'zbek eposidagi qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishi motivi Xizr obrazi bilan bog'liq bo'lib, eposda bu mifologik personajning homiy vazifasida kelishi ham shu bilan asoslanishini qayd qilgan edi¹⁹. « Bu nazariy xulosa Xizr obrazining nafaqat doston, balki ertak va afsonalardagi epik talqinini tadqiq qilishga ham asos bo'ldi»²⁰. K.Imomovning fikriga ko'ra Xizr obrazi genetik nuqtayi nazardan uch xil tasnif etiladi, ya'ni antropomorf (inson ko'rinishida) zoomorf (jonivor ko'rinishida) va narsa-predmet shaklida namoyon bo'lishi²¹ ta'kidlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xizr teonimi mifologik qarashlar natijasida vujudga kelgan bo'lsa-da, ertaklarda o'ziga xoslikni keltirib chiqarib, davrlar o'tishi natijasida aynan hayotda mavjud shaxs sifatida o'zbek xalqi lisoniy ongida saqlanib qolgan.

¹⁸Нурманов Ф. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридagi талқини. Филол. фанлари номзоди. дисс. автореф. - Тошкент: 2007.

¹⁹Зарифов Х.Т К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. - М.: Наука, 1958. - С.122.

²⁰Нурманов Ф. Ко'rsatilgan manba.

²¹Нурманов Ф. Ко'rsatilgan manba.

Quyidagi ertak parchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xizr alayhissalomning chol qiyofasida namoyon bo'lishini kuzarishimiz mumkin:

Bir-ikki kun yo'l bosibdi. Uchinchi kun bir anhordan egilib suv ichayotgan ekan, oltin kokilli o'g'il xurjundan suvga tushib oqib ketibdi. Huriliqo zor-zor yig'lab bir buloqning yonida yotib, ikkinchi bolasini emizib uxlab qolibdi. Shu payt

Xizr bobo Huriliqoning oltin kokilli o'g'lini va akasi kesib tashlagan ikki qolini olib kelib, uni uyg'otibdi:

- Tur qizim, qimmatli narsalaringni ol!

Huriliqo cho'chib uyg'onsa, yonida o'g'lini va kesib tashlagan qolini kolarib bir chol turgan emish. Huriliqo sevinib ketibdi, o'rnidan turib cholga salom beribdi.

- Vaalaykum assalom, qizim, bu o'g'il senikimi? - deb so'rabdi Xizr bobo.

- Meniki, otajon, - deb shoshilib javob beribdi Huriliqo.

- Kelayotib, katta suvdan olayotganda xurjunimdan tushib, oqib ketgan edi.

- Bu qo'1 kimniki? Taniysanmi? - debdi chol²².

Xizr ishtirokidagi veqea-hodisalar, yuqorida aytganimizdek, devlar, farishtalar, ajdarlar kabi o'ta murakkab fantastik jarayonlarni vujudga keltirmaydi, ammo sehrgarlik holatlari uchraydi. Bunda sehr holati hayotiy voqealarga singdirib yuboriladi va voqea-hodisalar fonida unchalik sezilmaydi. Yana bir sababi Xizrning inson sifatidagi ko'rinishi xalqimiz ongida o'rnashib qolganligida, shuningdek, Xizr alayhissalomning ijobiy xususiyatlarga ega ekanligi natijasida inson ongida yoki tasavvurida ko'rishni ko'proq xohlashi (ishonishga bo'lgan ishtiyoqi) bilan

²²Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. Hasan va Huriliqo. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. - B - 60.



bog'liq deb izohlashimiz mumkin. Quyidagi misolga e'tibor qaratamiz:

Bolalaring bilan o'sha yerda bemalol o'ynab kulib yashayverasan, - deb, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Huriliqo toshlarni olib, yo'lga ravona bolibdi²³, yoki «Xizr bobo G'ayratning salomiga alik olib, g'oyib bo'libdi»²⁴.

Misolda «ko'zdan g'oyib bo'libdi» iborasi «uzoqlashish natijasida ko'rinmay qolish» ma'nosida emas, balki «turgan joyida yo'q bo'lish» ilohiyotiga ega teonim ma'nosini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq ertaklarida Xizr teonimi va Hotami toy antropoteonimi alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqi ongida ijobiy etalonlarni tashuvchi milliy-madaniy obyekt sifatida saqlanib qoladi.

²³ Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. Hasan va Huriliqo. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B.61.

²⁴ Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. Suv qizi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B – 61.